

**VALYUTA QIMMATLIKARINI QONUNGA XILOF TARZDA OLISH YOKI
O'TKAZISH JINOYATI: MILLIY VA XORIJIY QONUNCHILIK TAHLILI**

Haydarov Jaloliddin Hamza o‘g‘li¹

¹ Toshkent davlat yuridik universiteti

doktoranti E-mail: haydarovjaloliddin99@gmail.com

ORCID (0000-0002-4504-9110)

**MAQOLA
MA'LUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 07.10.2024

Revised: 08.10.2024

Accepted: 09.10.2024

KALIT SO‘ZLAR:

valyuta
qimmatliklari,
qimmatbaho toshlar,
qimmatbaho metallar,
qonunga xilof olish yoki
o‘tkazish, qimmatli
qog‘ozlar.

Ushbu maqolada valyuta qimmatliklarini qonunga xilof tarzda olish yoki o‘tkazish jinoyati milliy qonunchiligidan hamda xorijiy, jumladan MDH mamlakatlari tajribasi orqali tahlil qilingan. Natijada milliy qonunchiligidan mayjud bo‘lmagan normalar tahlil qilinib, ijtimoiy xavfli xattiharakatlarning jinoyat qonunchiligiga kiritilishi oqibatida jinoyat qonunchiligi qo‘riqlashi lozim bo‘lgan obyektlar mufoza etilishi holati o‘rganilgan. Chet el tajribasini o‘rganish oqibatida kriminalizatsiya qilingan normalar orqali ijtimoiy munosabatlar rivoji o‘rganildi. Milliy qonunchiligidan kriminalizatsiya qilinishi lozim bo‘lgan normalar belgilan olindi. Dekriminalizatsiya qilingan normalarni mamlakatimiz jinoyat qonunchiligidan chiqarish asoslari hamda natijasi yoritilishiga erishildi.

KIRISH. Sobiq sovet davlati qulagandan so‘ng bir qancha huquq sohalari, jumladan jinoyat huquqi ham isloq qilindi. SSSR jinoyat kodeksiga asoslangan holda qabul qilingan Jinoyat kodekslarida bevosita, shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlar manfaatlari himoyasi aks etdi.

Sovet Ittifoqi qulaganidan keyin tashkil topgan mamlakatlar, Boltiqbo‘yi davlatlari bundan mustasno respublikalar, Mustaqil davlatlar hamdo’stligiga birlashdilar. Natijada ushbu a’zo davlatlar Parlamentlararo Assambleyada o‘zaro qonun hujjatlarini ishlab chiqish,

ularni qabul qilishda ittifoqchilikni yo‘lga qo‘ygan hamda qonunchiligining takomillashishida hamfikrlikka egadirlar.⁸

Yuqoridagi kabi qonun hujjatlaridan namuna sifatida 1996-yil 17-fevralda qabul qilingan Namunaviy Jinoyat kodeksini olishimiz mumkin. Ushbu Namunaviy jinoyat kodeksining 29-bobida valyutaviy jinoyatlar tushunchasi “Tadbirkorlik yoki boshqa iqtisodiy faoliyatga qarshi jinoyatlar” bobidan o‘rin olgan bo‘lib, Ushbu kodeksning 276-moddasida “Valyuta qimmatliklari bilan noqonuniy bitim tuzish” hamda 277-moddasida “Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzish” harakatlari jinoyat tarkibi sifatida bevosita e’tirof etilganligi ahamiyatga molikdir⁹.

Namunaviy Jinoyat kodeksining 276-moddasi dispozitsiyasi tavsiflovchi xarakterga ega, ya’ni blanket dispozitsiya. Ushbu jinoyatning belgilarini aniqlash uchun zarur milliy qonunchilikka murojaat qilish lozim. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksidan farqli o‘laroq, valyuta qimmatliklarini noqonuniy olish yoki o‘tkazganlik uchun javobgarlik namunaviy Jinoyat kodeksida nazarda tutilmagan. Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 192-moddasi dispozitsiyasi namunaviy Jinoyat kodeksining 277-moddasiga to‘liq mos keladi. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzish jinoyati Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida 192-modda ostida qayd etilgan¹⁰.

Suveren davlatlar orasida birinchi bo‘lib jinoyat kodeksini qabul qilgan hamda uni ishlab chiqqan davlat O‘zbekiston edi. 1995-yil 1-apreldan kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida valyuta jinoyatlari uchun javobgarlik "Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar" o‘n ikkinchi bobida belgilangan. Ushbu bobga valyuta qimmatliklarini qonunga xi洛 ravishda sotib olish yoki sotish (177-modda), chet el valyutasini yashirish (178-modda) va qimmatbaho metallar yoki toshlarni davlatga topshirish qoidalarini buzish kabi jinoyatlar kiradi (185-modda)¹¹.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda Rossiya qonun chiqaruvchisi qila olmagan muhim jihat, katta va ayniqsa katta hajmdagi zarar tushunchalariga qonuniy tushuntirish mavjud. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi

⁸ Волженкин Б. В. Преступления в сфере экономической деятельности по Уголовным кодексам стран СНГ// Уголовное право 1998. №1. С. 100–105.

⁹ Модельный уголовный кодекс для государств-участников СНГ// Известия высших учебных заведений. Правоведение.1996. №1. С. 140.

¹⁰ Корчагин А. Г., Иванов А. М. Сравнительное уголовное право: Монография. Владивосток, 2001.

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>

Jinoyat kodeksida ma'muriy preyuditsiya bilan javobgarlikning belgilanishi ham saqlab qolingan.

Rossiya federatsiyasi jinoyat kodeksining 193-moddasi O'zbekiston jinoyat kodeksining 178-moddasida tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda olingan xorijiy valyutadagi mablag'larni chet eldan qaytarilganmi yoki yo'qmi, yashirish uchun javobgarlik ko'zda tutilganligi bilan ahamiyatga molikdir.

Belorussiya Respublikasining yangi Jinoyat kodeksi 1999-yil 2-iyunda qabul qilingan va 2000-yil 1-iyuldan kuchga kirgan. Valyuta jinoyatlari Belarus Respublikasi jinoyat kodeksining yigirma beshinch bobida "Iqtisodiy faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar" sifatida nazarda tutilgan. Bularga quyidagilar kiradi: qimmatbaho metallar va toshlar bilan bitimlar to'g'risidagi qoidalarni buzish (223-modda), Belarus Respublikasidan tashqarida noqonuniy hisob ochish (224-modda), chet el valyutasini yashirish (225-modda)¹².

Amaldagi Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksida ma'lum bo'limgan hamda Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan Belarus Respublikasidan tashqarida hisob raqamlarini noqonuniy ochish (JK 224-moddasi) jinoyatini olish mumkin. Ushbu jinoyat uchun ma'muriy javobgalik belgilangandan so'ng bir yil ichida Belarus Respublikasi chegarasidan tashqarida noqonuniy hisob-raqam ochganlik uchun jarima, muayyan huquqdan mahrum qilish yoki 3 yilgacha ozodlikni cheklash jazolari qo'llanilishi aks ettirilgan. Natijada Belarus Respublikasi Jinoyat kodeksida iqtisodiy jinoyatlar uchun ma'muriy preyuditsiya qo'llash amaliyotidan voz kechilmaganligini ko'rishimiz mumkin.

Ukrainada yangi qabul qilingan hamda 2001-yil 1-sentabrdan kuchga kirgan yangi tahriridagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismi oltinchi bobida bevostia "Iqtisodiy jinoyatlar" tushunchasi xarakterlangan. Jumladan, Ukraina Jinoyat kodeksi 207-moddasida "Chet el valyutasida daromadlarni ko'rsatishdan bosh tortish" uchun javobgarlik belgilab bergen bo'lsa, JK 208-moddasida Ukraina chegarasidan tashqarida qonunga xilof tarzda hisob-raqam ochish yoki undan foydalanishni ijtimoiy xavfli qilmish sifatida belgilaydi. Shu bilan birga ushbu kodeksning 214-moddasida qimmatbaho toshlar hamda mettalarning noqonuniy muomalasi uchun ham javobgarlikni belgilab bergen¹³.

Ukraina jinoyat kodeksining 207-moddasida "qochish" va "yashirish" atamalari tegishli kontseptual apparatning mazmunini tushunishning noaniqligiga olib kelishi mumkin, bu esa oxir-oqibat huquqni qo'llash amaliyotini qiyinlashtiradi. Rossiya Federatsiyasi jinoyat

¹² Уголовный кодекс Беларусь <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>

¹³ Уголовный кодекс Украины. <https://meget.kiev.ua/kodeks/ugolovniy-kodeks/>

kodeksining 193-moddasidan farqli ravishda, Ukraina jinoyat kodeksining 207-moddasi dispozitsiyasi tovarlarni, ishlarni va xizmatlarni sotishdan tushgan mablag'larni vakolatli bankdagi hisobvaraqlarga xorijiy valyutadagi mablag'larni majburiy o'tkazish zarurligini nazarda tutmaydi. Biroq, bunday majburiyat Ukraina "Xorijiy hisob-kitoblarni amalgalashish tartibi to'g'risida"gi 1996-yil 7-maydagi Qonunida mustahkamlangan. Ukraina Jinoyat kodeksi 207-moddasi uchun subyekt iqtisodiy faoliya bilan shug'ullanuvchi har qanday jismoniy hamda yuridik shaxs bo'lishi mumkin. E'tiborli jihatni, Ukraina Jinoyat kodeksida iqtisodiy jinoyatlar sodir etganlik uchun nafaqat jismoniy shaxslar, balki yuridik shaxslar ham javobgarlikka tortilishi ahamiyatga molikdir¹⁴.

Mamlakatimiz Jinoyat kodeksi uchun yangilik bo'lgan Ukraina Jinoyat kodeksi 208-moddasida nazarda tutilgan Ukrainian Respublikasi chegarasidan tashqarida noqonuniy hisobraqam ochish jinoyatini olishimiz mumkin. Ushbu harakatning ahamiyatli jihatni uni takroran sodir etish yoki bir guruh shaxslar tomonidan sodir etilishi Ukraina Jinoyat kodeksi 207-moddasi 2-qismi bilan javobgarlikni keltirib chiqaradi. Shuningdek, ukraina Jinoyat kodeksning 214-moddasida qimmatbaho toshlar hamda mettalarning noqonuniy muomalasi uchun ham javobgarlik belgilab bergan. Ushbu jinoyat kodeksida nazarda tutilgan 214-moddaning obyekti **zargarlik yoki maishiy buyumlar** hisoblandi.

Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1998-yil 21-mayda qabul qilingan hamda 1998-yilning o'zida kuchga kirgan¹⁵. Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 26-27-boblari bevosita "Iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar" deb nomlanadi hamda ushbu bobda qimmatbaho toshlar va metallar yoki marvarid bilan qonunga xi洛f tarzda savdo qilish (284-modda), qimmatbaho toshlar va metallarni davlatga topshirish tartib-qoidalarini buzish (285-modda), chet el valyutasi bilan qonunga xi洛f tarzda bitim tuzish (286-modda); chet el valyutasini yashirish (287-modda); tashqi iqtisodiy faoliyat tartiblarini buzish (288-modda)¹⁶.

Tojikiston Respublikasi Jinoyat kodeksida mamlakatimiz jinoyat qonunchiligidan farqli ravishda chet el valyutasida bitim tuzganlik uchun ham jinoiy javobgarlik belgilab bergan. Ushbu mamlakat Jinoyat kodeksi 286-moddasiga asosan, ma'muriy javobgarlik qo'llangandan so'ng bir yil ichida chet el valyutasida qonunga xi洛f tarzda bitim tuzganlik uchun jinoiy javobgarlik kelib chiqadi.

¹⁴ Корчагин А. Г., Иванов А. М. Сравнительное уголовное право: Монография. Владивосток, 2001.

¹⁵ Уголовный кодекс Республики Таджикистан. СПб., 2001. 298с.

¹⁶ Уголовный кодекс Республики Таджикистан. СПб., 2001. 298с.

Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi 1997-yil 16-iyulda qabul qilingan bo‘lib, 1998-yil 1-yanvardan kuchga kirgan. Qozog‘iston Respublikasi Jinoyat kodeksi 7-bobida iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar aks etgan. Ushbu bobda quyidagi jinoyatlar keltirib o‘tilgan: qimmatbaho metallar, tabiiy qimmatbaho toshlar va marjonlarning noqonuniy aylanmasi (210-modda); davlat mulkiga qimmatbaho metallar hamda qimmatbaho toshlarni topshirish qoidalarini buzish (211-modda); Davlat chegarasidan chet el valyutaisdagi mulklarni olib kelishdan bosh tortish (213-modda); Yuqorida qayd etilgan normalardan 210 va 211-moddalar 1998-yilgi 277-sonli Qonun bilan dekriminilatisyalashtirilgan¹⁷.

Ozarbayjon Respublikasi Jinoyat kodeksi 2000-yil 1-sentabrdan kuchga kirgan hamda mazkur kodeksning yigirma to‘rtinchi bobida bevosita qitisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar o‘rin olganligi bilan ahamiyatlidir¹⁸.

XULOSA

Yuqoridagilarga asosan, MDH mamlakatlariga a’zo davlatlarning deyarli barchasida iqtisodiyot asoslariga qarshi jinoyatlar o‘rin olgan bo‘lib, bu bilan muayyan bir harakat uchun javobgarlik doirasi ushbu mamlakatlarda deyarli yaqin ekanligi ahamiyatga molikdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Модельный уголовный кодекс для государств-участников СНГ// Известия высших учебных заведений. Правоведение. 1996. №1. С. 140.
2. Волженкин Б. В. Преступления в сфере экономической деятельности по Уголовным кодексам стран СНГ// Уголовное право 1998. №1. С. 100–105.
3. Корчагин А. Г., Иванов А. М. Сравнительное уголовное право: Монография. Владивосток, 2001.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>
5. Волженкин Б. В. Новый Уголовный кодекс Республики Казахстан// Правоведение. 1996. № 1. С. 142– 151.
6. Уголовный кодекс Беларусии <https://pravo.by/document/?guid=3871&p0=hk9900275>
7. Уголовный кодекс Украины. <https://meget.kiev.ua/kodeks/ugolovniy-kodeks/>
8. Уголовный кодекс Республики Таджикистан. СПб., 2001. 298с.
9. Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. СПб., 2001.

¹⁷ Волженкин Б. В. Новый Уголовный кодекс Республики Казахстан// Правоведение. 1996. № 1. С. 142– 151.

¹⁸ Уголовный кодекс Азербайджанской Республики. СПб., 2001.